

Shodiyeva Shahlo Soliyevna

35

Buxoro davlat universiteti
tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
s.s.shodiyeva@buxdu.uz
sh.shodiyeva_1991@mail.ru

BUXORO AMIRLIGINING TASHQI ALOQALARIDA ANGLIYADAN UZOQLASHISH SIYOSATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning 2-yarmida Angliyaning Markaziy Osiyo xonliklari, xususan Buxoro amirligi bilan ham yaqin diplomatik munosabatlar o'rnatishga kirishgan. Angliya hukumati tomonidan yuborilgan elchilik missiolari, ingliz-rus raqobati sharoitida Buxoro amirining siyosiy pozitsiyasi muhokama qilingan. Shuningdek, Buxoro amiri Nasrulloxonning diplomatik munosabatlarda inglizlardan uzoqlashish va Rossiya hukmron doiralariga yaqinlashish siyosati bilan bog'liq ma'lumotlar arxiv materiallari va tarixiy adabiyotlar yordamida asoslangan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Angliya, Rossiya, Afg'oniston, P.Demezson, Stoddart, Konolli, Muhammad Hakimbiy.

ПОЛИТИКА ДИСТАНЦИРОВАНИЯ ОТ АНГЛИИ ВО ВНЕШНИХ ОТНОШЕНИЯХ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Аннотация. В данной статье на основе архивных материалов и исторической литературы проведен анализ во второй половине XIX века Англия начала устанавливать тесные дипломатические отношения со среднеазиатскими ханствами. Обсуждались посольские миссии, направляемые британским правительством, политическая позиция бухарского эмира в контексте англо-российского соревнования. Также появилась информация, касающаяся политики бухарского эмира Насруллы-хана по дистанцированию от британцев в дипломатических отношениях и сближению с российскими правящими кругами.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Англия, Россия, Афганистан, П. Демезон, Стoddарт, Коннолли, Мухаммад Хакимби.

SOME REFLECTIONS ON THE RELATIONS BETWEEN BUKHARA AND ENGLAND IN THE 30-40S OF THE XIX CENTURY

Abstract. In this article, based on archival materials and historical literature, an analysis was conducted in the second half of the 19th century England began to establish close diplomatic relations with the Central Asian khanates. The ambassadorial missions sent by the British government, the political position of the Bukhara Emir in the context of the Anglo-Russian competition were discussed. Information also appeared regarding the policy of the Bukhara Emir Nasrullah Khan to distance himself from the British in diplomatic relations and to draw closer to the Russian ruling circles.

Key words: Emirate of Bukhara, England, Russia, Afghanistan, P. Demaison, Stoddart, Connolly, Muhammad Hakimbi.

Kirish. Angliya Buxoro amirligi bilan goh ochiq va goh maxfiy ravishda diplomatik aloqalar olib borar ekan, avvalo Buxoroni Xiva va Qo'qon xonliklari bilan o'zaro kurashlariga barham berib, murosaga kelishlarga, shimol va janubiy g'arbdan kelayotgan xavfni birlashgan holda bartaraf etishga chorlaydi. Rossiyaning Hindistonga Markaziy Osiyo orqali yurish yo'lini

o'rganish bilan cheklangan ingliz missiyalarida asta-sekin sifat jihatidan o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. O'rta Sharqda o'z egallagan mavqeini barqaror deb hisoblagan Buyuk Britaniya hukmron doiralari bu vaqtga kelib Markaziy Osiyoga ko'plab o'z elchi va agentlarini jo'nata boshladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston milliy arxivi hamda Hindiston milliy arxivi materialli tahlili shuni ko'rsatadiki, XIX asrning 2-yarmida Buxoro amirligining tashqi siyosatida Angliyadan uzoqlashish va Rossiyaga yaqinlashish siyosatiga o'zgarganligini ko'rish mumkin. O'lkaga tashrif buyurgan ingliz va rus elchilarining esdaliklari va hisobotlarida, xususan, J. Vulfning "Narrative of a mission to Bokhara, in the years 1843-1845, to ascertain the fate of Colonel Stoddart and Captain Conolly", N. Il'fning "Tursiya i tureskie deyateli" nomli asarlarida ham Rossiyaning Markaziy Osiyo xonliklari, xususan Buxoro amirligi bilan ham yaqin alokalar o'rnatishi Angliya hukumatida havotir uyg'otib, bu yerga o'z elchilarini yubora boshlaganligi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Ma'lumotlarni dalillashda qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi metodlar qo'llanilgan.

Muhokama va natijalar. Buyuk Britaniya hukmron doiralari bu vaqtga kelib Markaziy Osiyoga jo'natgan agentlari Abbot, Shekspir, Stoddart, Konolli kabilar zimmasiga bu mintaqadagi xonliklarda bevosita Angliyaning siyosiy hukmronligini o'rnatish vazifasini yuklamoqda edi [12.699, 8.34]. Chunonchi, ana shunday topshiriq bilan 1838 yilda inglizlar Buxoroga polkovnik Stoddartni jo'natadilar. U Buxoroga kelib amir Nasrullohxonga Rossiyaga qarshi birgalikda kurashish uchun Angliya homiyligiga o'tishni, Buxoro qo'shinlarini ingliz qurol-yarog'lari bilan ta'minlash va ularning jangovarlik qobiliyatini oshirish maqsadida Angliyadan harbiy instruktorlar chaqirishni taklif qiladi. Bu haqda "Tarixi Turkiston" asarida shunday deyiladi: "Elchi bo'lib kelgan Stoddartning maslak va muddaosi inglizlar tarafidan biror turli yomon niyat, zarar keltirmaslikka amirni ishontirib, boshqa davlatning, ya'ni Rossiyaning bu mamlakatga qasd va tajovuzidan saqlanmoqni hamda mudofaa etmoqni xohlagandan iborat edi. Buning ila barobar agar amir xohish qilib, munosib ko'rsa, Buxoro askarlarini jadid va tezotar to'plar ila salohlantirmoq va askariy muallimlar bermoq va Rossiya xufya harakat va mudofaasidan Buxoro hukumatini xabardor qilmoq edi..." [11.121, 15. 149-150].

Buxoro amirligi hukumati Angliyaning Afg'onistonga qilgan tajovuzlaridan xabardor bo'lganligi, Stoddartning bu takliflari tagida qanday niyatlar yotganligini tez anglaydi va uning takliflarini oqibatsiz qoldirib, o'zini ingliz josusi sifatida zindonga soladi. Bunda amir Stoddartning "Buxorodagi urf-odatlariga rioya qilmay xon saroyi oldidan ot ustida o'tgan" [11. 195] ligini bahona qiladi.

O'shanda amir Nasrullohxon inglizlarning Afg'oniston poytaxti Kobulgacha bosib kelganligi va Angliya hukumati Stoddartni ozod etishini so'rab Buxoro amiriga xat yuborishidan xavfsirab, ingliz josusini zindondan bo'shatgandi. Biroq Stoddart o'z maqsadlarini amalga oshirmaguncha Hindistonga qaytishni istamagan. Bu haqda u Hindiston hokimlaridan biriga yozgan quyidagi maktubi guvohlik beradi: "Men Buxoroda yana bir oz qolishga qaror qildim. Yer sharining bu qismidagi mamlakatlarda Britaniya millatining zo'r ta'sirini joriy etish uchun qo'limdan kelgan barcha choralarni ko'raman" [7. 195]. Ammo Stoddart Britaniya agenturasi uchun Buxoroda deyarli hech qanday ish qilishga ulgurmasdan yana ikkinchi marta zindonga tashlanadi, uning to'plagan ma'lumotlari esa Buxoroda qolib ketdi.

Stoddartning hibsdaligida Amir Nasrulloh unga agar Britaniya qirolichasining senga berilgan rasmiy yorlig'i bo'lsa men seni ozod qilaman. Biz deydi Nasrulloh Britaniya qirolichasining rasmiy diplomatik munosabatlarini xohlaymiz va shuning uchun senga Qirolichaga maktub jo'natib Qirolichadan rasmiy yorliq olishingni kutamiz va rasmiy diplomatik yorliq bo'lgandan so'ng seni ozod qilamiz, bo'lmasa seni josus sifatida aybdor deb topamiz deydi [3. № 638]. Stoddart Hindistondagi Britaniya gubernatoriga bir necha marta maktub yozadi va amir talabini bajarish kerakligini tushintiradi ammo u Hindistondagi Britaniya gubernatoridan ham Londondan ham hech qanaqangi javob ololmaydi. Umuman, Britaniya Stoddartni ozod qilish uchun hech qanaqangi rasmiy yorliq ham yoki vakil ham jo'natmaydi.

Stoddartdan keyin Markaziy Osiyoga kapitan Konolli yuborilgan edi [13. 160-161]. A.G. Serebrennikovning yozishicha, u 1842 yilda Xivaga kelib, xon orqali Stoddartni qutqarishga

harakat qilish bilan bir vaqtda, o'zining qyshbegi va mehtar bilan uchrashuvlarida xivaliklarni Buxoroga qarshi urush ochishlari uchun har tomonlama da'vat qiladi [14. 55-57]. Konolli bu yerda Buxoroni talash bilan xonning boyishi mumkinligini, yurish unchalik qimmatga tushmasligini, butun xarajatlarni inglizlar o'z zimmasiga olishlarini aytib, buning evaziga xon Rossiya bilan har qanday aloqalarni tamoman uzishi lozimligini bildiradi [14. 55-57].

Ammo Konolli Xivada o'z maqsadiga erishmasdan, maxfiy ravishda Qo'qonga jo'naydi. U Qo'qon xoniga harbiy qo'shinlariga ingliz usulini o'rgatishni taklif qiladi [15.151]. Biroq, o'sha vaqtda Muhammadalixonning Buxoro qo'shinlari bilan urishda yengilishi, uning rejalarini barbod bo'lishiga olib keldi [11. 195-196]. Buxoro amiri Nasrullohxon uni o'zining o'rdasiga taklif qiladi va o'zi bilan Buxoroga olib ketadi. Bu yerda ham Konolli zimmasiga yuklatilgan josuslik topshiriqni bajarish bilan shug'ullanayotganiga amin bo'lgan amir uni ham zindonga soladi [15. 151].

Ingliz agentlariga nisbatan Buxoro amiri tomonidan ko'rilgan bunday qat'iy choralar inglizlar bilan Buxoro o'rtasidagi ham savdo, ham diplomatik munosabatlarning anchayin susayib ketishiga sabab bo'ldi. Oqibatda Buxoroning Rossiya bilan aloqalari kuchayib, Buxoro bozorlarida ruslarning mavqei o'sdi. Chunonchi, 1838 yilda A.Konolli, rus mollari arzon bo'lishiga qaramasdan, ingliz mollari Buxoro bozorida afzalroq ko'rilishi, agar keyinchalik ingliz mollarining narxi rus mollarining narxigacha kamaysa, ular ruslarni Markaziy Osiyo bozorlaridan siqib chiqarishi mumkin [1. 232-233] ligi to'g'risida yozgan bo'lsa, 1843-1845 yillarda Buxoroda bo'lgan J. Vulf, Buxoro bozorlarida sotilayotgan mollarning asosini rus buyumlari tashkil etishini va Buxoroda 300 ga yaqin hindistonlik savdogarlar bo'lishiga qaramasdan, asosiy savdo Rossiya bilan bog'liq ekanligini yozadi [5. 272]. Bu faqat Buxoro-Sharqiy Hindiston o'rtasidagi savdo-sotiq sohasi ancha oqsab qolganligini ko'rsatadi.

Albatta 1840 yilarga kelib ruslarning Markaziy Osiyo tomon olib borgan tashqi siyosati o'z natijasini beradi, keyinchalik bu siyosat Yevropaliklar tomonidan "Sharq masalasi" yoki "Katta o'yin" siyosati deb nomlangan. XIX asrning 30-yillari oxirlarida Rossiya Hirot bekligining hokimi Komronshoh va uning vaziri Yor Muhammadxonlar bilan o'zaro ittifoqchilik shartnomasi imzolagan afg'on amiri Do'st Muhammad bilan aloqa o'rnatishga va qanday bo'lsin Afg'onistonni Angliya ta'sir doirasidan chiqarishga, shu tarzda inglizlarning Markaziy Osiyo, ayniqsa Buxoro amirligi bilan o'zaro aloqalarini umuman uzib tashlashga harakat qila boshlaydi.

XIX asrning 40-yillarida Buxoro amirligi o'z tashqi siyosatini Rossiya tomonga butunlay o'zgartiradi va inglizlarga xayrxoh bo'lgan bir necha mulozimlar josus sifatida qatl etiladi, shu jumladan amirlikdagi qushbegi (bosh vazir) lovozimda bo'lgan Muhammad Hakimbiy ham 1839 yil o'ldiriladi [4]. Vaholanki, Muhammad Hakimbiy davlat ishlarida juda katta tajribaga ega bo'lib, har qanday chigal siyosiy masalalarni davlat manfaati asosida mohirlik bilan hal qilgan. U rus vakillari bilan bo'lgan muloqotida o'zini Yevropa (asosan Britaniya) siyosiy manfaatlariga moyil bo'lgan kishi sifatida ko'rsatib, ruslarning o'z siyosiy qiziqishiga (asosan bosib olish) to'g'ri keluvchi siyosiy-iqtisodiy talablarini o'z vaqtida rad qilgan edi.

Hech gumonsiz aytishimiz mumkinki, bunga Rossiyaning Sharq tomon olib borayotgan siyosiy o'yinlari sabab bo'lgan, Eronning Kavkaz yerlar uchun Rossiyadan yengilishi va Rossiyaning Eronga ham siyosiy ham iqtisodiy talablar qo'yishi Eronning Rossiya bosimi ostida siyosat olib borishiga olib keldi va Eron Rossiya ko'magida Inglizlar va ularning savdo mollarini Afg'oniston va Buxoro hududlariga kiritmaslik uchun Afg'onistonning Hirot, Qandahor kabi viloyatlariga harbiy bosim o'tkazib turdi. Bu vaziyatdan foydalangan Rossiya hukumati Buxoroning Afg'onistondan Hindiston va Eronga o'tadigan savdo yo'llarini qisman yopib qo'ygan. G.A.Hidoyatovning ta'kidlashicha, bu paytdagi vaziyatning o'ziga xosligi shunda ediki, ikkala davlatning mustamlakalari o'rtasida Eron, Afg'oniston, Qashg'ar singari mustaqil mamlakatlar mavjud edi. Shuning uchun kurash faqat London va Peterburgdagina emas, balki mana shu oraliqdagi mamlakatlarga ham ko'chib o'tdi. Bu vaziyat ikkala davlatning Osiyo mintaqasidagi taktikasini belgilab berardi. Agar Rossiya asosan Markaziy Osiyo hududlarida o'rnatish olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, Angliya o'zining iqtisodiy va siyosiy ta'siriga oraliqdagi davlatlarni ham bo'ysundirishga harakat qildi [20.54]. Bundan ko'rinib

38 turibdiki, u yerlardan turib istagan paytda Rossiyaning manfaatlariga qarshi harakat qilish mumkin edi.

Amir Nasrullohxon Konolli va Stoddartni 18 iyun 1842 yili qatl etgan. Amir yana to'rt ingliz vakillarini qatl ettirgan, bular: 1. Istambuldan kelgan italiyalik Orlando Giovanni. 2. Flores Naselli. 3. Yunoniy (garik) Jozef. 4. Turkiyalik zobit Mustafo Chovush Askariy. Bu zobit harbiy ta'lim berish uchun Rashid posho tomonidan Buxoroga kelgan. Oxirgisining ba'zi ishlari amirga manzur bo'lmaganidan, dinga ehtiromsizligi bahonasida qatl etilgan [10.278]. Ularni qatldan so'ng amir Rossiya hukumatiga murojaat qilib, inglizlarning tazyiqidan himoya qilishini so'rab, o'zini muhofazalaydi.

Biroq ayni paytda Angliya ham Markaziy Osiyo bozori uchun Rossiya bilan diplomatik nizo olib borishni davom ettiradi [19. 19]. XIX asrning 40-yillarida Afg'onistondagi ingliz-afg'on urushi (1838-1842 yy.) va Buxoro amirining ingliz elchilari polkovnik Stoddart hamda kapitan Konollilarni qatl etishi, Jozef Vulfni hibsga olib, faqat Eron shohi vositachiligidagina chiqarib olishi oqibatlarida Angliyaning bu hududlardagi faoliyati bir oz susaygan bo'lsa ham, biroq Rossiyaning Qrim urushidan keyin Markaziy Osiyodagi harakatlari Angliya hukumatining bu hududdagi faoliyatini jonlantirdi. Bu davrda Angliya hukumati Markaziy Osiyodagi mavqeini mustahkamlash uchun usmoniylar davlati vositachiligidan foydalanishga harakat kildi. U Markaziy Osiyo xalklarining turklarga moyilligi, dini bir ekanligi va Turk sultonlarining ayni paytda Islom xalifasi ekanligidan foydalanib, u orqali Markaziy Osiyo musulmonlarini o'ziga og'darib olish rejasini tuzdi. Sababi Markaziy Osiyo xonliklarining barchasi Usmoniylar bilan doimiy elchilik aloqalari o'rnatib kelar, ruslarga qarshi kurashda va o'zaro nizolarni hal qilishda undan yordam va maslahat olar edilar. XIX asrning birinchi yarmida Angliya Istambulda o'z rejasini amalga oshirish uchun markaz tashkil qiladi [21]. Uni Angliya tashqi siyosati uchun ko'p yillar mehnat qilgan Palmerstonning o'rtog'i Stratford Kenning boshqarardi. Stratford Angliyaning Usmoniylar davlatidagi elchisi bo'lib keladi.

O'sha yillarda Angliya usmoniylar bilan hamkorlikda Markaziy Osiyo xonliklarining ruslarga qarshi koalitsiyasini tashkil qilishga harakat qildi [6. 40-41]. Ayniqsa, Qrim urushidan so'ng, Angliya Markaziy Osiyo xonliklari Afg'oniston va Eronga o'z josuslarini yuborib, bu mamlakatlarni Rossiyaga qarshi kurashga chaqiradi. Biroq, yuqorida bayon etilganiday, ular o'rtasida o'zaro doimiy talashiladigan hududlar bo'lib, ular orqali doimiy nifoq - nizolar kelib chiqardi. Markaziy Osiyo xonliklarining har uchchalasi bu hududda bir-biriga o'zining ustunligini tan oldirishga urinar, bunda musulmonlar halifasining tasdig'ini olish maqsadida Usmoniylar davlatiga elchiliklar yuborib turardilar. Ammo Markaziy Osiyoning bitta xonligini ustunligini tan olgach, boshqalari bilan munosabatlari buzilib ketishini xohlamagan turk sultoni [9. 124], ularni ittifoqqa chaqirib, kuchlarini umumiy dushman bo'lgan Rossiya bosqinchilariga qarshi birlashtirishga qaratgan.

Angliya hukumati nafaqat Markaziy Osiyo xonliklarini ruslarga qarshi ittifoq tuzishga chaqirishda, balki Buxoro amiri hibsga olgan elchilarini qutqarib olishda ham usmoniy hukumatidan foydalanishga urinadi. Xiva xoni orqali kutilgan natijaga erisha olmagan ingliz hukumati shu masalada usmoniylar hukumatiga murojaat qilishga majbur bo'ladi [2. 102].

Angliyaning Stoddart va Konolli nomi bilan tashkil etilgan maxsus qo'mitasi ikki zobit taqdirini aniqlash uchun o'z odamlarini Buxoro, Xiva va Qo'qonga yuborishga qaror qiladi. Ana shu qo'mita nomidan 1844 yil 3 noyabrda olim, tadqiqotchi hamda sayohatchi sifatida tanilgan J. Vulf Istambulga yuboriladi [16. 55]. Angliyaning u yerdagi elchisi S. Kening J. Vulfga Buxoro safari uchun zarur hujjatlarni tayyorlab berdi. Usmoniylar sultonining Buxoro amiri, Xiva va Qo'qon xonlariga yozilgan maktublari Vulfning turk sultoni homiyligida ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar vazifasini o'tashi lozim edi. Bu maktublar o'sha vaqtda usmoniylar Angliya bilan hamkorlikda Rossiya istilosiga qarshi Markaziy Osiyo xonliklari ittifoqini vujudga keltirishga intilganliklaridan dalolat beradi. Usmoniylar hukumati o'shanda Buxoro amiriga Angliya zobitlarini ozod qilish zarurligi, ularni hibsga olish millatlararo huquq normalariga to'g'ri kelmasligi haqida ikki maktub yozadi. Biroq bu maktublarga qaramasdan amirning inglizlarni qatl ettirishi keyinchalik ular o'rtasidagi munosabatlarning ancha sovuqlashishiga olib keladi. XIX

asrning 50-yillarida inglizlar Markaziy Osiyoda turklar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishni davom ettirganlar [17. 142]. O'sha paytda Buxoro amiri tashqi siyosatiga ham Turkiya tomonidan qattiq ta'sir ko'rsatilgan. Angliya Buxoroda ham Turkiya orqali o'z mavqeini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'ra boshlagan. "Turkiya, - deyiladi bu haqda arxiv hujjatlarida, - amirda Rossiyaga nisbatan ishonchsizlik ruhini uyg'otishga harakat qilmoqda"[18. 99-134].

Arxiv manbalariga qaraganda, Angliya parlamenti 1858 yilning martida Hindistonni mustamlakaga aylantirish va Markaziy Osiyo bilan savdo aloqalarini kengaytirishga mablag' topish uchun maxsus qo'mita tayinlagan. Bu qidiruvning predmeti haqida Parlament o'zining 1858 yilda nashr etilgan maxsus kitobchasida yozib chiqargan [18. 477].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XIX asrning 30-yillarida Rossiyaning Markaziy Osiyo xonliklari, xususan Buxoro amirligi bilan ham yaqin aloqalar o'rnatishi Angliya hukumatida havotir uyg'otib, bu yerga o'z elchilarini yubora boshlaydi. Ularning yuborilishidan maqsad Rossiyaga nisbatan Buxoro hukumatida ishonchsizlik ruhini uyg'otish, ular o'rtalariga nifoq solib, Angliyaning Buxoro uchun ko'proq manfaatli ekanligiga ishonitirishdan iborat bo'lgan. Bu maqsadga erishish yo'lida ingliz elchilari Buxoroda o'z ta'sirini kuchaytirayotgan rus vakillari, ularning amirlik bilan diplomatik aloqalari, ruslar tomonidan bu yerga keltiriladigan mollarning miqdori va baholari, Buxoro amirligining harbiy salohiyati, iqtisodiy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar yig'ish singari vazifalarni bajarganlar.

Buxoro amiri Angliya hukumatining 40-yillardagi savdo diplomatik aloqalarni tiklash to'g'risidagi takliflarini rad etib, Rossiyaning amirlikda o'z mavqeini mustahkamlab olishiga yo'l qo'ygan. Bunday noto'g'ri yuritilgan siyosat esa amirlikning keyinchalik Rossiyaning yarim mustamlakasiga aylanishi uchun zamin tayyorlagan.

XIX asrning 40-yillarida Buxoro bilan o'zaro munosabatlari buzilgan Angliya hukumati Buxoro amirligiga Islom halifasi bo'lgan Usmoniylar hukumati orqali ta'sir ko'rsatishga harakat qilgan. Ular birgalikda Rossiyaga qarshi Markaziy Osiyo xonlik larida ittifoq tuzishga harakat qilganlar. Biroq ular Markaziy Osiyoni Rossiya imperiyasi bosqinchilari bosib olayotgan paytda xonliklar elchi yuborib, bosqinchilarga qarshi kurashda amaliy yordam so'raganda, tegishli yordam bermaganlar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Conolly A. Journey to the North of India overland from England through Russia... V.I. – P.232-233.
2. Mert O. Buxara amirligi elcisi Muhammed Parca efendinin ... – S.102.
3. National Archive of India. Foreign Department, 1840, secret letter, – №638.
4. National Archive of India. Foreign Department, secret letter, 21 july, 1839.
5. Wolff J. Narrative of a Mission to Boukhara in the years 1843-1845 to ... – P.272.
6. Aminov A., Babaxodjaev A. Ekonomicheskie posledstviya prisoedineniya Sredney Azii k Rossii. T., 1966. – 212 c.
7. Afganistan i anglichane v 1841 i 1842 godax / K.F. Neymann – M.: Kniga po Trebovaniyu, 2022. – 184 s.
8. Mannonov B. Tarix soxtakorlar. Toshkent, "Fan", 1983 yil.
9. Mannonov B. Xofiz Muxammad Fozilxonning Buxoro safari... – B.124.
10. Mubashshir Sulaymon Kosoniy. O'rta Osiyo tarixi. Siyosiy, diniy, ijtimoiy, adabiy. 3 juz'. Toif (Saudiya Arabistoni). 1415 h.y. – B.278. (266-301).
11. Mullo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 250 b.
12. Muxammadjonov, A.R. Buxoro va Xevaning Rossiya bilan munosabatlari / A.R. Muxammadjonov, T. Ne'matov. – Toshkent.: Fan, 1957. - 320 s.
13. Ne'matov, T. Xeva bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatla / T. Ne'matov. – Toshkent.: Fan, 1957. – 200 s.

14. Serebrennikov AG. Sbornik materialov dlya istorii zavoevaniya Turkestanskogo kraya / Sost. polk. A.G. Serebrennikov. – Tashkent.: tip. Sht. Turkest. voen. okr., 1912-1915. - 26. (1842 i 1843 goda. - 1914. - [2], XIV, 231 s.)
15. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan tarixiy ocherklar va lavhalar. Xayrullaev M.M. tahriri ostida. Toshkent., 2003. – 376 b.
16. O‘zbekistonning yangi tarixi (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida) / Tuzuvchilar: H.Sodiqov, R.Shamsutdinov, R.Ravshanov va boshq.; Tahrir hay’ati: A.Azizxo‘jaev (rais) va boshq. – Tyu: Sharq. 2000. – 464 b.
17. O‘MA, F.I-715, 15-ro‘yxat, 22-ish. V. 142
18. O‘MA, F.I-715, 1-ro‘yxat, 15-ish, 33-hujjat, V.99-134;
19. Xasanov A. Ekonomicheskie i politicheskie svyazi Kirgizii s Rossiey – Frunze: Qirgosizdat. 1960. – 96 c.
20. Hidoyatov G.A. Iz istorii Anglo-Russkix otnosheniy v Sredney Azii v konse XIXv. (60-70 gg.). – T.: Fan, 1969. – 453 s.
21. Iljurban N. Tursiya i tureskie deyateli // Russkiy Vestnik. – T.S.XXXVIII.
22. Yuldosheva, B., & Rahmatova, F. (2023). SOVET ITTIFOQI TARKIBIDAGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA NAZAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 205-208.
23. Yuldosheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 356-359.
24. Yoldasheva B., Parizod S. Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O‘rni //Miasto Przyszłości. – 2023. – T. 41. – S. 424-429.
25. Ergashev, Dj. (2023). Karavan-sarai i ix znachenie na karavannykh putyax. V *E3S Web of Conferences* (t. 458, str. 07002). EDP Sciences.
26. Ergashev, J. (2023). Vliyanie pravleniya Tyurkskogo kaganata na politicheskuyu jizn kidaney. *SENTR NAUChNBIX PUBLIKATSIY (buxdu.uz)*, 39 (39).
27. Muzaffarov F. i dr. Rasprostranenie novyx sortov zernovykh kultur v Turkestanskom regione //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 130. – S. 01014.
28. Shodiyeva, S. (2024). BUXORO HUKMDORLARINING VALIAHDLIK MASALALARI. *SENTR NAUChNBIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 51(51).
29. Shodiyeva, S. (2022). BUXORO AMIRLIGIDA TURK EMISSARLARI FAOLIYaTI. *SENTR NAUChNBIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 26(26).
30. Shodiyeva, S. (2022). BUXORODA GERMAN-TURK JOSUSLIK FAOLIYaTI. *SENTR NAUChNBIX PUBLIKATSIY (buxdu. uz)*, 26(26).